

KREDITLASH JARAYONIDA GAROV TA'MINOTINING O'RNI

*O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi Boshqaruv kadrlarni tayyorlash fakulteti Tijorat banklarini boshqarish yonalishi talabasi
Nusratov Muxtor Abdiqodirovich*

ANNOTATSIYA

Ushbu tezisda kreditlash jarayonida garov ta'minotining o'rni va ahamiyati chuqur o'rganilgan va tahlil qilingan. Shuningdek kreditorlarning garov bilan ta'minlangan talablarini qanoatlantirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi va bu dastur yuzasidan qilingan ishlar o'rganilgan. Sohada yuzaga kelayotgan dolzarb muammolar tahlil qilib, xulosa va takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Kreditlash, garov, garov ta'minoti, Qarz oluvchi, muammoli kredit, qarzdor, aktiv operatsiya, ssuda, garov reyestri.

KIRISH

Moliyaviy bozorda kredit tashkilotlari shaxsiy ehtiyojlar hamda iqtisodiyotni real sektorini qo'llab-quvvatlash uchun moliyaviy resurslar taklif etadi. Qarz oluvchi esa ushbu kreditlarni olish uchun muayyan garov ta'minotini taqdim etishi lozim.

O'z navbatida kredit tashkiloti kredit oluvchining maqsadidan kelib chiqqan holda u tarafidan tuzilgan biznes rejani va pul oqimlarini chuqur tahlil qilgan holda kredit uchun garov ta'minotini talab qilishi mumkin. Bunda garov ta'minoti kreditni yopish uchun asosiy manba sifatida qaralmaydi. Shunday bo'lsa-da, ayrim holatlarda to'lov muddati o'tgan kreditlarni so'ndirish uchun garov ta'minoti asosiy rol o'ynaydi.

Oxirgi yillarda iqtisodiy sohada olib borilgan islohotlar natijasida tijorat banklar tomonidan iqtisodiyotning real sektoriga ajratilgan kredit salmog'i yildan-yilga oshib bormoqda.

Bugunga qadar kreditorlarning talablarini garov mulki bilan qondirish murakkab bo'lib qolayotgan edi. Bunda tijorat banklari muammoli krediti bo'lgan qarzdorlarni asosan sudga berishar hamda murakkab jarayonlardan o'tib kreditorlar talablari qondirilayotgan edi. Ushbu jarayon vaqt, mablag' talab etar va aksariyat hollarda mijozlar bankrotlik taomilini boshlab kreditorlar talablari qondirilmay qolayotgandi. Garov bilan ta'minlangan majburiyatlarni suddan tashqari tartibda undirish amaliyoti esa deyarli ishlamasdi. Bularning barchasi iqtisodiyotimizga katta zarar keltirayotgan edi.

ASOSIY QISM

Garov – mijozga kredit ajratishda ta'minotning bir turidir. U mulk, zakalat, huquqlar va tovar ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Kredit ta'minotiga taqdim etilgan mulk, zakalat, huquqlar va tovar kredit asosiy qarzi va foizlarining to‘liq qaytarilishiga garov hisoblanadi. Shu munosabat bilan, garov bahosi kredit summasidan o‘rtacha 20-30 foizga ko‘proq bo‘lishi kerak. Kredit to‘lovleri muddatida qaytarilmagan taqdirda, kredit to‘lovlarini undirish garovga qo‘yilgan ta'minotga qaratiladi.

Kredit ta'minoti uchun bir nechta garov turlaridan foydalanish mumkin. Ular:

Mulk: ko‘char mulk (avtomobil, uskuna, texnika) va ko‘chmas mulk (turar va noturar joy).

Zakalat: qimmatbaho metallar (zargarlik buyumlari, oltin va kumush tangalar).

Huquqlar: qimmatli qog‘ozlar (depozit sertifikatlari, aksiyalar); yerga yoki mulkka egalik va foydalanish huquqlari.

Garovga qo‘yiladigan mol-mulk albatta baholanishi, sug‘urta qilinishi va garov shartnomasi bilan tasdiqlanishi kerak. Bunday shartlar majburiy bo‘lib kreditning to‘liq qiymatiga ta’sir qiladi.

Kredit muddati davomida garov egasi mulkka (zakalat tarzdagi garovdan tashqari) egalik qilish va ulardan foydalanishi mumkin. Faqatgina, kredit tashkiloti garov mulkidan boshqa shaxslarning foydalanishiga cheklov qo‘yishi mumkin. Bu shartlar garov shartnomasida aniq ko‘rsatilishi kerak.

Qarzdorning kreditdan foydalanish davrida, kredit tashkiloti roziligi bilan garovni almashtirish imkoniyati mavjud. Bunda kredit tashkiloti tomonidan qarzdorning kredit tarixi, taklif etilayotgan mulkning holati va kredit qoldig‘iga mutanosibligini inobatga oladi.

Garov mulki bahosi kredit summasidan ancha baland bo‘lsa, uni navbatdagi kreditga ham garovga qo‘yish huquqi qonun bilan belgilangan (O‘zbekiston Respublikasi “Garov to‘g‘risida”gi Qonuni, 15-modda). Bunda, garov mulki dastavval birinchi kredit bo‘yicha yuzaga kelgan majburiylarni qoplashi nazarda tutiladi.

Qarzdorlarning majburiylari bajarilishini ta'minlash maqsadida taqdim etilgan garovga nisbatan kreditorlarning huquqlari to‘g‘risidagi, shuningdek qarzdorning mol-mulkni tasarruf etish va undan foydalanishga doir huquqlariga qo‘yilgan cheklov hamda qarzdor o‘z majburiylari bajarilishini ta'minlashi bilan bog‘liq boshqa talablar haqidagi yozuvlarni o‘z ichiga olgan garov reyestri ma'lumotlar bazasi yaratilgan. Garov reyestriga garovga qo‘yilgan mulklar to‘g‘risidagi ma'lumotlar mulk egasining roziligi bilan kiritiladi. Ushbu ma'lumotlar bazasida foydalanuvchi sifatida ro‘yxatdan o‘tgan holda garov mulki to‘g‘risidagi ma'lumotlarni tekshirish mumkin. Bu asosan kreditor uchun garov mulkiga qo‘yilgan majburiy talablarni (masalan, mulk boshqa kreditga garovga qo‘yilganligi), shuningdek, garovga qo‘yilayotgan mulk to‘g‘risida batafsil ma'lumotlarni qisqa muddatda aniqlash imkoniyatini beradi.

“Kreditorlarning garov bilan ta’minlangan talablarini qanoatlantirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni garovga qo‘yilgan mol-mulkini auksion orqali sotish jarayonlarini soddalashtirishga xizmat qiladi.

Mazkur farmon bilan kreditorlarning garovdagi mulkka nisbatan huquqlari ustuvorligini ta’minlash uchun to‘lovga qobiliyatsizlik holatida kreditorlarning talablarini garov qiymatidan qondirishda ularga mutlaq ustunlik berilishi va garovga qo‘yilgan mol-mulkning ochiq kimoshdi savdosida sotilishini garovga qo‘yuvchining iltimosiga asosan sud tomonidan kechiktirilishiga yo‘l qo‘ymasligi belgilanib qo‘yildi. Bu esa, kreditorlarning mablag‘larini sansalorgarchiliksiz o‘z vaqtida undirilishiga va natijada aylanmadan chiqqan mablag‘larning tez fursatda muomalaga kiritishiga zamin yaratadi.

Oxirgi yillarda iqtisodiy sohada olib borilgan islohotlar natijasida tijorat banklar tomonidan iqtisodiyotning real sektoriga ajratilgan kredit salmog‘i yildan-yilga oshib bormoqda. Misol uchun, tijorat banklar kredit portfelining qoldig‘i 2023 yil 1 may holatiga 413,4 trln. so‘mni tashkil etib o‘tgan yilning mos davriga nisbatan qariyb 18 foizga o‘sgan. Shu bilan birga tanganing ikkinchi tomoniga nazar tashlasak, kredit portfeldagi muammoli kreditlar miqdori umumiyligi portfelning 3,6 foizini tashkil etmoqda. Albatta, mazkur muammoli kreditlarning aksariyati garov ta’minoti bilan ta’minlangan kreditlardir.

Bugunga qadar kreditorlarning talablarini garov mulki bilan qondirish murakkab bo‘lib qolayotgan edi. Bunda tijorat banklari muammoli krediti bo‘lgan qarzdorlarni asosan sudga berishar hamda murakkab jarayonlardan o‘tib kreditorlar talablari qondirilayotgan edi. Ushbu jarayon vaqt, mablag‘ talab etar va aksariyat hollarda mijozlar bankrotlik taomilini boshlab kreditorlar talablari qondirilmay qolayotgandi. Garov bilan ta’minlangan majburiyatlarni suddan tashqari tartibda undirish amaliyoti esa deyarli ishlamasdi. Bularning barchasi iqtisodiyotimizga katta zarar keltirayotgan edi.

“Kreditorlarning garov bilan ta’minlangan talablarini qanoatlantirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni garovga qo‘yilgan mol-mulkini auksion orqali sotish jarayonlarini soddalashtirishga xizmat qiladi.

Mazkur farmon bilan kreditorlarning garovdagi mulkka nisbatan huquqlari ustuvorligini ta’minlash uchun to‘lovga qibiliyatsizlik holatida kreditorlarning talablarini garov qiymatidan qondirishda ularga mutlaq ustunlik berilishi va garovga qo‘yilgan mol-mulkning ochiq kimoshdi savdosida sotilishini garovga qo‘yuvchining iltimosiga asosan sud tomonidan kechiktirilishiga yo‘l qo‘ymasligi belgilanib qo‘yildi. Bu esa, kreditorlarning mablag‘larini sansalorgarchiliksiz o‘z vaqtida undirilishiga va

natijada aylanmadan chiqqan mablag‘larning tez fursatda muomalaga kiritishiga zamin yaratadi.

Shuningdek, garov obyektini auksionga kreditorning va (yoki) qarzdorning buyurtmasi asosida qo‘yishga ruxsat etish, qarzni undirish uchun notariuslardan ijro xati olishda qarzni ikki tomonlama tasdiqllovchi solishtirish dalolatnomasini talab etmaslik va garov mol-mulkini realizatsiya qilishda kredit tashkilotlarini 2024 yil 1 yanvarga qadar qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod etilishi qarzdorlikni undirishda garov mulkini sotish jarayonini soddalashtirmoqda. Bu o‘z navbatida, jismoniy shaxsga mol-mulk garovi ostida ajratilgan muammoli qarzdorlikni undirish jarayoni tezlashtirib, banklarning muammoli kreditlarini so‘ndirish evaziga bank balansiga olingan umumiy qiymati 2,6 trln so‘mlik 1 000 dan ortiq mol-mulkarning realizatsiyasi jarayonlarining tezlashishiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, garov bilan ta’minlangan majburiyatlarni suddan tashqari tartibda undirish amaliyoti ham takomillashtirilmoqda. Garovga qo‘yilgan mol-mulk egasi jinoyat yoki boshqa huquqbazarlik sodir etganligi uchun undan mol-mulki olib qo‘yilsa, banklarga o‘z talablarini ushbu mol-mulk hisobidan ustuvor tarzda qanoatlantirish huquqini berilishi ularga shu mol-mulkka nisbatan garov huquqining tiklanishiga olib keladi.

Shu bilan birga, garovga olishda boshqa shaxs roziligi yoki organning ruxsati olingan bo‘lsa, garovga oluvchining mazkur mol-mulk garovi bilan ta’minlangan talablari faqat sud tartibida qanoatlantirilishi haqidagi talab bekor qilinmoqda. Bu esa, kredit tashkilotlarining muammoli kreditlari tarkibida mol-mulklar bilan ta’minlangan sud jarayonidagi kreditlarni suddan tashqari undirilishini osonlashtirib, sudlarga bo‘lgan ish yuklamasini kamaytiradi.

Umuman olganda, mazkur farmon bilan muammoli aktivlarning bank aylanmasiga qaytishi natijasida banklarning likvidlilik darajasi yuqorilaydi, ular bo‘yicha yaratilgan zaxiralarning qaytarilishi tufayli banklar barqarorligi oshadi. Eng muhim, likvidlilik va kapital yetarlilik oshishi hisobiga banklar tomonidan qo‘shimcha 38,3 trln so‘mlik aholi va tadbirkorlik subyektlariga kreditlar ajratish imkoniyati yaratiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda kredit bozorida garov ta’minotidan foydalanishning zaruratini o‘rganish asosida quyidagilarni xulosa qilishimiz mumkin.

Birinchidan, kredit bozorlarida garov ta’minotidan foydalanish qarz oluvchi uchun foiz Stavkalarini pasaytirishga xizmat qiladi. Agar qarz oluvchi kreditni olish uchun garov sifatida ishlatalishi mumkin bo‘lgan aktivlarga ega bo‘lsa, bank unga kreditni pastroq foiz stavkasida taklif qilishi mumkin.

Ikkinchidan, kredit bozorlarida garov ta'minotidan foydalanish mavjud kredit mahsulotlari ko'lамини kengaytiradi. Chunki ko'plab banklar kafolatsiz asosda kredit berishdan manfaatdor emas, shu sababli kredit mahsulotlari cheklangan bo'ladi.

Garovni ta'minlash orqali esa qarz oluvchi yanada qulayroq shartlarga ega bo'lgan kredit mahsulotlari tanlovini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Uchinchidan, xalqaro amaliyotda banklar tomonidan qarz oluvchiga nisbatan garovsiz kreditlar uchun kredit qiymatining 10 %dan 30 %gacha depozit qo'yish talabi qo'yiladi. Bank kreditlarida garov ta'minotini qo'llash amaliyoti natijasida esa qarz oluvchi mazkur talabni bajarishi shart bo'lmaydi.

To'rtinchidan, milliy amaliyotda bank kreditlarida garov ta'minotini qo'llash amaliyotini kengaytirish zarur. Garov sifatida qo'yiladigan aktivlar tarkibini kengaytirish, xususan, qimmatli qog'ozlardan garov sifatida foydalanish imkoniyatlari kengaytirilishi lozim.

Beshinchidan, tijorat banklarida garov ta'minotini boshqarish mexanizmini ishlab chiqish va samarali yo'lga qo'yish zarur. Aks holda, muammoli kreditlar hajmi oshadi va bu tijorat banklarining moliyaviy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi tugrisida" gi 2020 yil 12 maydag'i PF-5992-sonli Farmoni. www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 29-apreldagi PF-63-son Farmoni.
3. Abdullaeva SH.Z. Pul, kredit va banklar. Darslik. - T.: "Moliya", 2004 yil.
4. Abdullaeva SH.Z. Bank ishi. Darslik. - T.: TMI, 2003.
5. Abdullaeva SH.Z. Xalkaro valyuta va kredit munosabatlari - T.: TMI, 2006 yil.
6. Y. Abdullaev, T.Qoraliev va b. Bank ishi. O'quv qo'llanma. -T.: "Iqtisod-Moliya", 2010 yil.
7. Mullajonov F. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi. - T.: 2010
8. Shodmonov Sh.Sh., G'ofurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik; O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2010
9. www.cbu.uz – O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy veb-sayti;
10. www.minfin.uz - O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining rasmiy veb-sayti.
11. www.bankir.uz - norasmiy veb-sayt.
12. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Milliy qonunchilik tizimining veb-sayti.
13. www.bis.org – Xalqaro Bazel Qo'mitasining rasmiy veb-sayti.
14. www.wikipedia.org – Global internet tarmog'i ensiklopediyasi.
15. www.adb.org – Osiyo Taraqqiyot Bankining rasmiy veb-sayti.
16. www.imf.org – Xalqaro Valyuta Fondining rasmiy veb-sayti.
17. www.worldbank.org – Juhon bankining rasmiy veb-sayti.